



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING HUQUQ VA QONUNYI MANFAATLARINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

G'ofurjonov Omadbek Akramjon o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

“Jinoiy odil sudlov” fakulteti 1-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-June 2023 yil
Ma'qullandi: 20-June 2023 yil
Nashr qilindi: 24-June 2023 yil

KEY WORDS

Yoshlar huquqlari, burchlari,
davlat siyosati, voyaga
yetmaganlar, huquqbuzarlik,
profilaktika, jinoyatchilikni oldini
olish

ABSTRACT

Mazkur maqolada hozirgi kunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, davlatimiz tomonidan yoshlar uchun tashkil etilgan imkoniyatlar, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlar huquqlari. Shuningdek, ayni damda voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar va ushbu huquqbuzarliklar sonini ortishi hamda ularni oldini olish. Jahon mamlakatlarining ushbu sohada amalga oshirgan ishlari haqida.

Joriy yilning 11-aprel sanasida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlar yuzasidan o'tkazilgan vidoeselektrda aytilganidek, “mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar **19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini** tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi”¹.

Mazkur raqamlar shuni anglatadi, uchunchi renessansning poydevari bu albatta - mamlakatda istiqomat qilayotgan yoshlardir. O'z o'rnida davlatning ertangi kelajagi aynan yoshlar bilandir. Shu asnoda, davlatimiz tomonidan yoshlarni ish bilan taminlash, ishsizlikni bartaraf etish, sifatli ta'lim berishga katta e'tibor berilmoqda.

Aynan mazkur sohada, 2016-yilning 12-avgustida qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va davlatimiz rahbarining bir necha qaror va farmonlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Yoshlar — kelajagimiz**” davlat dasturi to'g'risidagi **Farmoni**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlarini yoshlarga qaratilayotgan e'tibor desak adashmaymiz.

“Yoshlarga oid davlat dasturi to'g'risida”gi qonunda ham mazkur siyosatning asosiy va ustuvor yo'nalishlari belgilangan:

- “yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

¹<https://aniq.uz/uz/yangiliklar/prezident-tomonidan-yoshlar-uchun-yangi-imkoniyatlar-belgilandi>

-yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

-yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

-yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash

-yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

-iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

-yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

-yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish"².

Ma'lumki 30-aprelda xalqimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Aynan ushbu Konstitutsiyaning qabul qilinishi yoshlar uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar uchun huquqiy asos vazifasini o'tadi desak hech ham adashmagan bo'lamiz.

Buning asosiy sababi sifatida shu ayta olamizki, Konstitutsiyada yoshlarni bilim olishga bo'lgan, erkin kasb topishga bo'lgan va o'z qobiliyatini namoyon qilish va davlat tomonidan imtiyozlar faqatgina qonunda belgilanishi, adolat prinsiplarini muvofiq bo'lishi belgilandi.

Shuningdek, bosh qomusimizda, "bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi, har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi belgilandi"³.

Shu asnoda, o'tgan yilning o'zida "yoshlar tadbirkorligi uchun 4 trillion so'm kredit berilib, 150 mingta loyiha ishga tushirilgan, 325 mingta ish o'rni yaratilgan. 43 ming gektar ekin maydoni ajratilib, **435 ming yoshlar bandligi ta'minlangan. 32 mingdan ziyod yoshlarga subsidiya orqali asbob-uskuna, mehnat qurollari va kompyuter olib berilgan** va kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ishlarni mahallada tashkil etish bo'yicha vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. 9 ming 500 ta mahallaga fidoyi va tashabbuskor yoshlar yetakchilari tayinlandi. Bu tizim orqali yoshlarga **100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi**, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yildi"⁴.

Biz yuqorida aytib o'tganimiz, "Yoshlarga oid davlat dasturi to'g'risida"gi qonunning 2-bobida yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni va amalga oshirishni hamda unda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalar keltirib o'tilgan. Misol uchun prokuratura organlari ushbu sohada vakolatlariga quyidagilar kiritilgan:

-"yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

²<https://lex.uz/acts/-3026246#-3026552>

³<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

⁴<https://aniq.uz/uz/yangiliklar/prezident-tomonidan-yoshlar-uchun-yangi-imkoniyatlar-belgilandi>

-yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;
-yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatda ishtirok etadi"⁵.

Albatta tan olishimiz kerak. Biz aytayotgan, aholimizning yarmidan ko'pini tashkil qiluvchi bu yoshlar huquqbuzarlik sohasida ham yetakchi o'rinlarda turibdi desak xato qilmagan bo'lamiz. Aynan shu boisdan, prokuratura va boshqa ko'plab huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuqoridagi vakolatlarni berilishi bejizga emas har holda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi taqdim qilgan ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, "birgina o'tgan yilning o'zida 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan **12728 ta**, 25 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan **17550** nafar shaxs jinoyat sodir etgan. Mazkur ko'rsatgichlar, 18-24 yoshdagilar uchun 14,1 foizni, 25-30 yoshdagilar uchun esa 19,5 foizni tashkil etadi"⁶.

"Yildan-vilga voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar, jumladan, jinoyatlarning soni ham oshib bormoqda. Buning isboti sifatida, statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bollsak, 2020 yilning dastlabki **yetti oyi** davomida respublika boyicha yoshlar tomonidan **5 914 ta jinoyat** sodir etilgan bolib, bu jami jinoyatlarning **22,5 foizini** tashkil qiladi. Bu esa 2019 yilning xuddi shu davriga nisbatan **30 foizga ko'p** hisoblanadi. Shu davrda sodir etilgan jinoyatlarda voyaga yetmaganlarning ulushi **23,7 foizni, ya'ni 401 tani** tashkil qiladi. Mazkur raqam 2019 yilning mos davriga nisbatan **36,4 foizga ko'p**. Guvohi bo'lganimizdek raqamlar quvonarli emas. Shu bois mazkur masala nafaqat mutasaddi tashkilotlarni, balki har bir fugaroni sergaklikka chorlashi lozimdir"⁷.

Mazkur raqamlar har kimning ko'nglini xira qilishi aniq. Biz bong urib aytayotgan yoshlarga imkoniyatlar, shart sharoitlar deymizku, lekin, tanganing ushbu tomoni ham bor ekanligini unutishga haqqimiz yo'q. To'g'ri davlatimiz va Prezidentimiz tomonidan ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi aynan ushbu sohaga oid. Jumladan:

-**"Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"**gi O'zbekiston Respublikasi qonuni

-**"Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"**gi Prezident qarori.

-**"Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"**gi O'zbekiston Respublikasi oliy sudi plenumi qarori

Aynan yangi O'zbekistonda yoshlarning huquqlarini ta'minlashda ular o'rtasidagi huquqbuzarlikni bartaraf etishning o'zi eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Agar xalqaro maydonga nazar tashlaydigan bo'lsak, "2021-yil may oyida Yevropa Ittifoqi keyingi to'rt yil uchun og'ir va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha o'zining ustuvor yo'nalishlarini qabul qildi. Ustuvorliklar 2022-2025-yillar oralig'ida "Jinoyat tahdidlariga qarshi Yevropa ko'p tarmoqli platformasi" (EMPACT) doirasida amalga oshiriladi. (EMPACT) doirasida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar, agentliklar va boshqa hamkorlar jinoiy

⁵<https://lex.uz/acts/-3026246#-3026552>

⁶<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

⁷<https://civil.uz/ru/voyaga-yetmaganlar-huquqbuzarliklarini-oldini-olishga-barcha-birdek-masul/>

tarmoqlar, ularning tuzilmalari va biznes modellarini **yo'q qilishga mo'ljallangan qo'shma operativ harakatlar orqali asosiy jinoiy tahdidlarga qarshi kurashish** uchun yaqindan hamkorlik qiladilar.

(EMPACT) loyihasi asosida birgina 2022-yilning o'zida sezilarli natijalarga erishildi jumladan:

- 31 584** kishi hibsga olingan
- 171** tonnadan ortiq narkotik moddalar musodara qilindi
- 167 452** tonna chiqindi olindi
- 17 688** potentsial odam savdosi qurbonlari aniqlandi"⁸.

Aynan mazkur ishning amalga oshirilishi nafaqat yoshlar orasidagi balki, umuman yuzaga keladigan jinoyatlarni oldini olish va ularga barham berishdir desak sira ham xato qilmagan bo'lamiz.

Bining fikrimizcha, voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchiliklarni oldini olishda eng ustuvor vazifa bu - oila tinchligi. Buning asosiy sababi sifatida, oiladagi muhitning qay darajada ekanligi, ota-onaning bir-biriga bo'lgan munosabati va bolaga bo'lgan ga'mxorlik yoki shavfqatsizlik bolaning keyin bosishi kerak bo'lgan qadamini belgilaydi.

"Agar statistik ma'lumotlarni hisobga oladigan bo'lsak, voyaga etmaganning jinoyatchi shaxsini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan juda ko'p oilaviy sabablar mavjudligi va natijada u tomonidan jinoyat sodir etilishi aniqlanishi mumkin"⁹.

Birinchidan, voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarlikni oldini olish uchun faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas. Balki, mahalladagi har bir yoshi katta odamdan, hatto maktabdagi qorovul bu ishda masuliyatli bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, bizga ma'lum voyaga yetmaganlarning ko'p qismi hozirda maktab ta'lim tizimida taqsil olishadi. Bu shuni anglatadiki, maktab ushbu jarayonda alohida o'ringa ega. Chunki, tan olish kerak, Respublikaning barcha hududida darslar har doim ham qattiq nazorat ostida o'tmaydi. Ayrim o'quvchilar aynan dars vaqtida boshqa nomaqbul ishlar bilan bandlar. Shu o'rinda maktab masullari tomonidan shu kabi o'quvchilarning oila a'zolari bilan bog'langan holda tegish tushuntirishlar olib borilishi kerak.

Uchinchidan, har bir mahallada hech bo'lmagan har oyda 1 marotaba huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan yig'ilishlar o'tkazilgan holda tushuntirish ishlari olib borilgan maqul va bunga qo'shimcha ravishda har bir maktabda psixologlar tomonidan yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazish va ularning ruhiy holatlarini hamda ota-onalarining ularga va ularning ota-onalariga bo'lgan munosabatlarini o'rganishlari ancha foydali bo'ladi.

Qayd qilinganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, hozirda shubxasiz yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratildi va ularga oid ko'plab qonun hujjatlarining qabul qilishini ularning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada to'la-to'kis ta'minlashdir. Albatta bu ishda Konsultatsiyamiz huquqiy asos. Shu bilan birga, ushbu ishda ustuvor yo'nalish bu - voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishdir. Aynan bu ishni qilish orqali davlat ertangi kuniga ishonch bilan qadam bosadi. Chunki davlatning buguni va ertasi bu - yoshlar. Demak yoshlarni ayni damda nima bilan band ekangli, davlatning ertangi kunini belgilaydi.

⁸<https://www.consilium.europa.eu/en/policies/eu-fight-against-crime/>

⁹[file:///C:/Users/ALISHER%20ALIMJONOV/Downloads/yoshlar-ortasida-jinoyatchilikning-oldini-olish-va-unga-qarshi-kurashish%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/ALISHER%20ALIMJONOV/Downloads/yoshlar-ortasida-jinoyatchilikning-oldini-olish-va-unga-qarshi-kurashish%20(1).pdf)